

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI

Yo‘ldosheva Naimaxon Ubaydullo qizi

Qo‘qon Universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1 kurs talabasi.

Tel: +998 88 820 24 40

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan yangi avlod darsliklari bo‘lgan ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati va holati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, o‘qish savodxonligi, fan, boshlang‘ich sinf, ahamiyat, savodxonlik, dars samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность родного языка и грамотности чтения в начальных классах. В статье также рассматривается значение и статус родного языка и грамотности чтения, нового поколения учебников для начальной школы.

Ключевые слова: родной язык, читательская грамотность, естествознание, начальный класс, значимость, грамотность, эффективность урока.

Abstract: This article discusses the importance of mother tongue and reading literacy in elementary grades. The article also discusses the importance and status of mother tongue and reading literacy, a new generation of primary school textbooks.

Key words: mother tongue, reading literacy, science, primary grade, importance, literacy, lesson effectiveness.

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, yangi avlod darsliklari o‘quvchilarning matn bilan ishlash salohiyatini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darsliklar o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham qulay va osondir. Yangi avlod darsligi bo‘lgan ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quvchini ijodiy yondoshishga undaydi. O‘quvchilarga ijodiy tafakkurni shakllantirishda ijodiy, mustaqil ishlar, nutq va tafakkurni rivojlantirishga doir bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish malakalarini mustahkamlashi jihatidan ijodkorlikni shakllantiruvchi samarali vosita sanaladi.

Ma'lumki, maktablarda o'quvchilarga o'qitiladigan har bir fan yosh avlodning har tomonlama komil, bilimli, jamiyatga foydali shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yosh avlodning kelajagi uchun muhim poydevor vazifasini o'taydi. Poydevorning qay darajada mustahkam bo'lishi esa bevosita boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarga bog'liqdir. Boshlang'ich sinflarga o'qitiladigan fanlar orasida ona tili va o'qish savodxonligi fani muhim o'ringa egadir. Ushbu fan ilgari alohida fanlar sifatida o'qitilgan bo'lsa, hozirda bir fan hisoblanadi. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda xalqaro standartlarga tayangan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tmaganligini ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining birlashtirilgani misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Umuman olib qaraganda, bu ikki fan bir-biriga nihoyatda yaqin fanlar hisoblanadi. Ularni alohida o'qitish esa o'zini oqlamasdi. Bu ikki fanning birlashtirilishi boshlang'ich sinflardagi fanlarni ixchamlashtirgan, albatta.

Ona tili va o'qish savodxonligi fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan darslar o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Asosiy e'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darsi alohida ajralib turadi. Ona tili va o'qish darslari orqali o'quvchining savodi chiqadi. U yozishni va o'qishni o'rganadi. Bu o'quvchilarga keyinchalik ham boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Bunda asosiy rolning albatta boshlang'ich sinf o'qituvchisi egallaydi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodini chiqarish o'qituvchidan kasbiy mahorat va bilim talab etadi. Bu vazifa o'qituvchining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi har doim ushbu mas'uliyatni his qilgan holda dars jarayonini tashkil etishi lozimdir. Bunda o'qituvchidan ijodkorlik, izlanish, ilg'or va innovatsion texnologiyalarni, ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'z darsida mahorat bilan qo'llay olish talab etiladi. O'quvchilarning savodxonligini oshirishda ona tili va

o‘qish fani muhim ahamiyatga egadir. O‘quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to‘g‘ri o‘qish, so‘z boyligini oshirish, keng fikrlashga o‘rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o‘rganishda ona tili va o‘qish savodxonligini to‘g‘ri tashkil eta bilish lozimdir. Fikrini o‘stirish, fikrlashga o‘rgatish, kelajakka sog‘lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o‘qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi ona tili va o‘qish darslarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanib dars olib borish ta‘lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini o‘stirishga yordam beradi. Shu sababli ona tili va boshqa darslarda axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida dars o‘tish davr talabi deb aytishimiz mumkin. Ona tili va o‘qish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishda ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Masalan, axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi. O‘quvchilarga ta‘lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi; o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi; o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; o‘quvchi mavzu bo‘yicha yangi fikrlarni bildirishga va o‘ziga o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi. Ushbu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi butun dunyo ta‘lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlardan doimo xabardor bo‘lishi va ularni o‘zlashtirib o‘z faoliyati davomida qo‘llay olishi lozimdir.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta‘lim berishda kommunikativ yondashuv, ya‘ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e‘tiborda bo‘lishi lozimdir.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya‘ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma‘no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma‘noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgaralar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e‘tibor qaratiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyatini chuqur anglagan holda o‘quvchilarga zarur bilimlarni va ko‘nikmalarni bera olishi zarurdir. Shundagina o‘quvchilar kelgusida og‘zaki va yozma savodxonligi yuqori shaxslar bo‘lib yetishadi. Shuningdek, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyatini chuqur anglagan holda o‘qituvchilarga zarur bilimlarni va ko‘nikmalarni bera olishi zarurdir. Shundagina o‘qituvchilar kelgusida og‘zaki va yozma savodxonligi yuqori shaxslar bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori
2. Zilola Madatova Milliy o‘quv dasturi: tahlillar va takliflar yoxud yomg‘irdan qochib, do‘lga tutildikmi? Xalq ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim 28 / 07 / 2021
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi : 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova va boshq. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. - 4-b.
4. Farsaxonova, M. (2022). 2-sinf "Ona tili va o‘qish savodxonligi" darsligidagi matnlarni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar, (1).
5. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlangich sinflarda sifat ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА_1).